

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA MEXMONXONALARNI O‘RNI

G. T. Iskandarova,

t.f.d. professor Toshkent davlat tibbiyot universiteti,
Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrası mudiri,

Kalbayeva U. Sh.

mustaqil izlanuvchi Toshkent davlat tibbiyot universiteti,
Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrası mudiri,

Aksariyat mamlakatlar, xususan, iqtisodiy o‘tish davridagilar uchun turizmni rivojlantirish milliy daromadni diversifikatsiya qilish, xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash va ijtimoiy taraqqiyotni rag‘batlantirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Turizmning rivojlanishi xorijiy valyuta oqimi, aholi bandligini oshirish hamda kichik va o‘rta biznes sohasining kengayishi hisobiga yalpi ichki mahsulot o‘shishiga xizmat qiladi. Turizm tufayli infratuzilma rivojlanadi, mahalliy aholining turmush tarzi yaxshilanadi. Xorijiy tillar va milliy merosni bilish orqali aholining madaniy savodxonligi yuksaladi. Turizm madaniy an‘analar va hunarmandchilikni saqlashga yordam berishi bilan ham ahamiyatlidir. Mamlakatning chet ellik sayyohlar uchun nechog‘lik jozibadorligini ko‘rgan aholida o‘z yurtiga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi [1].

Turizmning faol rivojlanishi mamlakatning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash va madaniyatlararo aloqalarni yaxshilashga yordam berishi bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, jamiyatning ekologik xabardorligini oshiradi va tabiat ne‘matlaridan barqaror foydalanishga imkon beradi. Buni milliy bog‘lar, qo‘riqxonalarini yaratish va ekoturizmni rivojlantirish misolida ko‘rish mumkin. O‘zbekistonda turizm haqida so‘z borganda, birinchi navbatda, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatidan o‘rin olgan shaharlar ko‘z oldimizga keladi. Yurtimizdagi har bir shaharni borib ko‘rish uchun yuzlab sabab topish mumkin. Toshkent, Qo‘qon, Andijon, Shahrisabz — bu oxiri yo‘q zamonaviy sharq ertagi[2,10].

Turizmning rivojlanishi Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish g‘oyalariga hamohangdir. Turizm insonning qiziquvchanligini qondirib, uning ma‘naviy dunyosini boyitadi, jismonan sog‘lomlashtiradi, dam olish va yangi tajriba orttirish jarayonini uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Yaqinda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarning turizm salohiyatini oshirish, xorijiy investisiya loyihalarini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda turizm xizmatlari eksporti 1,6 barobarga oshib, 3 milliard 500 million dollarga yetgani ta‘kidlandi. Ushbu sohada 2 mingdan ziyod yangi tadbirkorlik sub‘yektlari ish boshladi. O‘tgan yili xorijiy sayyohlar tashrifi ilk bor 10 milliondan oshdi[3].

Hududlarda turizm va servis infratuzilmasi juda tez rivojlanyapti. Jumladan, so'nggi sakkiz yilda turizm sohasiga 6 milliard 500 million dollar sarmoya kiritilib, 130 mingta mehmon o'rni ochildi. Mamlakatda 20 ta turizm qishlog'i faoliyat ko'rsatyapti. Bo'stonliq tumanida "Amirsoy", "Ugam River" kurortlari, turizm zonalari tashkil etildi. Parkent tumanidagi "Oltin bel" cho'qqisida yangi xalqaro tog'-chang'i zonasi barpo etilyapti. Bularning barchasi, jumladan, mamlakatimizning tarixi, madaniyati va boy tabiati sayyohlar kelishini 2-3 karra ko'paytirish mumkinligini ko'rsatmoqda[4,9].

Bo'stonliq tumanidagi "Chorvoq darvozasi" majmuasi turizmni rivojlantirish uchun istiqbolli maskanlardan biri hisoblanadi. Yana bir loyiha Yashnobod tumanida okeanarium qurishga qaratilgan. Yangi sayyohlik ob'yekti 20 gektar maydonni egallaydi. Uning yonida savdo-mehmonxona majmuasini qurish rejalashtirilgan bo'lib, bu 1,6 mingta ish o'rni yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, Chorvoq suv ombori qirg'og'ida 10 ta kichik zonalarga bo'lingan "Sea Breeze Uzbekistan" xalqaro sayyohlik markazini qurish rejalashtirilmoqda. Ularning har biri bir qadam masofada joylashgan dam olish maskanlari va zarur xizmatlarni o'z ichiga oladi. Davlatimiz rahbari markaz barcha tashrif buyuruvchilar uchun qulay bo'lishi lozimligini ta'kidlab, barcha zarur infratuzilma bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi[5]. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatda ichki turizm jadal rivojlanmoqda. Mahalliy sayyohlar soni 23 million kishiga yetdi. Lekin haligacha boshqa viloyatlarga sayohatga bormaganlar ko'p topiladi. Shu bois endi har oyning bir shanba-yakshanbasi "oila va jamoa bilan sayohatga chiqish kuni", deb e'lon qilinadi. Yoshlar o'rtasidagi musobaqa g'oliblariga O'zbekiston bo'ylab sayohat yo'llanmasi sovg'a qilinadi. Bunda sohaga xususiy sektorni jalb qilish va biznes loyihalarni amalga oshirish, madaniy meros ob'yektlarini ijaraga berish mexanizmini takomillashtirish va ulardan tushadigan daromad hisobini raqamlashtirish bo'yicha masalalarni hal etish muhim. Barcha tarixiy obidalarga kirish imkonini beradigan "yagona turistik karta" joriy qilish mavzusi juda qiziq[6].

Davlatimiz rahbari turizmning yana bir ustuvor yo'nalishi sifatida madaniy meros ob'yektlari bilan ishlash ekanligini ko'rsatib o'tdi. O'zbekiston madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan O'zbekiston o'z hududida ko'plab me'moriy obidalar, qadimiy qal'a va qasrlar, noyob tabiat yodgorliklarini, folklor elementlarini jamlagan. So'nggi to'rt yilda 327 ta majmua restavratsiya va konservatsiya qilindi yana 485 ob'yekt qayta ta'mirga muhtoj. Bularning barchasi O'zbekiston turizmni jadal rivojlantirayotgani va bu ishni davom ettirishga qat'iy intilishidan dalolat beradi. Mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratilgan, mehmonlarning chegaradan o'tishida ma'muriy to'siqlar mavjud emas. Ichki va tashqi turizmni rivojlantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy transformatsiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekistonning mintaqadagi yetakchi turizm yo'nalishi sifatidagi mavqeyini mustahkamlaydi. Mazkur imkoniyatlarning barchasi

sanitar-gigiyenik jihatdan to'g'ri rejalashtirilgan, qurilgan va foydalaniladigan mexmonxonalarni qurishni talab etadi[7,8].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Булкина Д. А., Смойкина Е. О. Качественные аспекты сферы туризма и гостеприимства: гигиена питания //Вестник ассоциации вузов туризма и сервиса. – 2020. – Т. 14. – №. 1. – С. 94-105.
2. Тухватуллина Л. Р. Гигиена труда работников сферы обслуживания //изучение параметров суточного мониторингирования артериального давления у больных артериальной гипертензией с синдромом обструктивного апноэ сна. – 2018. – С. 761.
3. Девятерикова А. В. Совершенствование комфортных условий проживания в гостинице : дис. – 2017.
4. Титиевская Е. М. Проблемы классификации гостиничных предприятий //индустрия гостеприимства: проблемы и перспективы развития. – 2017. – С. 87-90.
5. Кравцова А. И. Анализ деятельности административно-хозяйственной службы и пути её совершенствования на примере гостиницы «Полет» : дис. – Сибирский федеральный университет, 2022.
6. Горбачева Е. Г., Боборыкина В. А. Культура поведения и качество обслуживания в современных гостиницах как социокультурный феномен //Новая наука: стратегии и векторы развития. – 2015. – №. 2. – С. 7-11.
7. Бутковская Е. Д. К Вопросу о соблюдении санитарно-гигиенических норм в сфере гостиничного бизнеса //ББК У 43 К 906. – С. 48.
8. Суренкова З. К. Оценка качества гостиничных услуг в период пандемии: отечественный и зарубежный опыт //М 34 Материалы международного научного форума «Образование. Наука. – 2022. – С. 73.
9. Шукуров И., Максумов Ш. Санитария и Гигиена.
10. Новосельцев В. И., Датиев В. С. О безопасности людей в сфере услуг в гостиницах //research leader 2021. – 2021. – С. 410-413.